

Date: 7<sup>th</sup> April-2025

GO'SHT VA BALIQ MAHSULOTLARI.YARIMFABRIKANTLAR SANITARIYA-  
GIGIYENA TALABLARI

**Madaminova Yorqinoy**

Urganch davlar pedagogika instituti

“Texnologik ta’lim kafedrası o’qituvchisi”


**Bekchanova Sevara Qo’zibay qizi**

Urganch Davlat Pedagogika instituti texnologik ta’lim 3- kurs talabasi

**Atadjanova Zilola Bunyod qizi**

Urganch Davlat Pedagogika instituti texnologik ta’lim 3- kurs talabasi

Go’sht qimmatli oziq-ovqat mahsulotidir. So’yilgan hayvon nimtasi yoki nimtasining bir qismi. Go’sht inson iste’mol qiladigan oziq-ovqatdagi oqsilning asosiy manbai hisoblanadi. Go’shtning tuzilishi va ta’mi, sifatлари hayvonlar turi, zoti, jinsi, yoshi, boqish va saqlash sharoitlariga bog’liq. Hayvonlarning turiga qarab, mol ya’ni qoramol, qo’y, ot go’shti va boshqalarga ajratiladi. Qoramol, qo’y, echki Go’shtni sifati va semizligiga qarab birinchi va ikkinchi toifalarga bo’linadi. Odamlar tomonidan iste’mol qilinadigan go’shtning asosiy qismi qushxonalarda hayvonlarni so’yish orqali ishlab chiqariladi. Oziq-ovqat uchun hayvonlarning go’shti ishlatiladi. Yovvoyi katta va kichik sutemizuvchilar, sudraluvchilar, amfibiyalar va boshqalar. Dunyoning turli oshxonalarida turli hayvonlarning go’shti ishlatiladi. Bu, asosan, zotlar va oshxona an’alarining mavjudligiga bog’liq.



Baliq inson organizmini tozalovchi, suyak va tishlarni mustahkamlovchi shifobaxsh taom hisoblanadi. Ayniqsa, tez hazm bo’lishi va parhezboqligi baliqning qiymatini yanada oshiradi. Baliq go’shti tarkibida juda ko’p vitamin va mikroelementlar saqlanishi tufayli biologik qiymati ham mol va qo’y go’shtidan yuqori turadi. Baliq go’shtining 100



Date: 7<sup>th</sup> April-2025

grammida inson salomatligi uchun kerak bo'ladigan bir kunlik — 0,2 milligramm yod saqlanadi. Shuningdek, baliqni iste'mol qilish bir qancha kasalliklarga koni foyda hisoblanadi: yurak kasalliklari xavfini kamaytiradi, ko'rish qobiliyatini yaxshilaydi, uyquni yaxshilaydi, revmotoid artritni yengillashtiradi, xolesterin darajasini kamaytiradi, modda almashinuvini tezlashtiradi, qon bosimini pasaytiradi, nevrologik kasalliklarda, erkaklarda jinsiy quvvatni oshiradi, jigar uchun foydali hisoblanadi.

Baliq go'shtidan tayyorlangan taomlar mashhur va kaloriyasi yuqori. Bundan tashqari, ular mazali va o'ziga xos hidga ega. Ulardan ba'zilari dunyo oshxonalarining haqiqiy tashrif qog'ozlari. Har bir professional oshpaz bu foydali retseptlarni biladi.

Ulardagi baliq go'shti haqiqiy noziklik vazifasini bajaradi.



Yarimfabrikat — bu o'zbek tilida "yarim tayyor mahsulotlar" degan ma'noni anglatadi. Bir korxonada ishlab chiqarilgan va aksariyat boshqa korxonada ishlab chiqariladigan murakkab mahsulotlarning tarkibiy qismi tarzida foydalaniladigan tayyor mahsulot. Yarimfabrikat korxonaning o'zida ishlab chiqarilgan hamda chetdan sotib olingan yarimfabrikatlarga bo'linadi. Bir sexda tayyorlanib, ikkinchi sexda qayta ishlashni talab etadigan mehnat mahsulotlari, masalan, qora va rangli metallar, kimyoviy tolalarning dastlabki tayyorlamalari korxonaning o'zida ishlab chiqarilgan yarimfabrikat deyiladi. Kooperatsiya yo'li bilan yetkazib beriladigan mahsulotlar sotib olingan yarimfabrikat deyiladi. Masalan, paxta tozalash sanoati korxonalarida tayyorlangan paxta tolasi ip yigiruv korxonalari uchun yarimfabrikatdir.

Yarimfabrikatlar uchun sanitariya-gigiyena talablari ishlab chiqarish jarayonida mahsulotlarning sifatini va xavfsizligini ta'minlash uchun muhimdir.

Ushbu talablar quyidagilarni o'z ichiga oladi:



Date: 7<sup>th</sup> April-2025

1.Xomashyo va materiallar gigiyenasi: Ishlatiladigan barcha xomashyo va materiallar sanitariya talablariga javob berishi kerak.

2.Ishlab chiqarish muhitining tozaligi: Ishlab chiqarish joylari muntazam ravishda tozalanishi va dezinfeksiya qilinishi lozim.

3.Xodimlarning shaxsiy gigiyenasi: Ishchilar gigiyena qoidalariga rioya qilishi, maxsus kiyim va qo'lqoplardan foydalanishi kerak.

4.Mahsulotlarni saqlash va tashish: Mahsulotlar gigiyenik sharoitlarda saqlanishi va tashilishi lozim.



**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Go%CA%BBsht>
2. <https://daryo.uz/2019/12/30/gosht-va-gosht-mahsulotlari-ishlab-chiqarish-sohasida-klaster-usulida-faoliyat-yuritayotgan-korxonalariga-press-tur-uyushtirildi>
3. <https://uz.inditics.com/baliq-va-baliq-mahsulotlarining-tarkibi-va-ozuqaviy-qiymati/>
4. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Yarimfabrikat>
5. <https://cyberleninka.ru/article/n/sanitariya-gigiyena-muhofaza-qilish-qonunlarining-ahamiatliligi?ysclid=m8h4q4tmuq253277892>

